

важно для изучения языка. Все учащиеся будут вовлечены в процесс обучения, что способствует активному усвоению пройденной темы.

2. Стимуляция интереса: Игровая форма обучения создает интерес к предмету, что делает процесс изучения более увлекательным. Многие уроки проводятся традиционным способом ученики могут

3. Социальное взаимодействие: Игры часто требуют командной работы, что способствует развитию коммуникативных навыков и умения работать в группе.

4. Обратная связь: Игровая методика дает возможность мгновенно оценить уровень усвоения материала, что позволяет корректировать подход к обучению.

#### Примеры игровых методов

1. Ролевые игры: Учащиеся могут разыгрывать различные сценарии, например, посещение магазина или обсуждение книги. Это помогает улучшить разговорные навыки и расширить словарный запас.

2. Игры на развитие словарного запаса: Игра «Словесный марафон» включает в себя быстрое наименование слов на заданную тему. Этот метод помогает учащимся быстрее запоминать новые слова.

3. Кроссворды и ребусы: Эти виды игр помогают развивать логическое мышление и способствуют усвоению новых слов и фраз.

4. Викторины: Викторины на знание грамматики, лексики или культуры русского языка могут быть как командными, так и индивидуальными. Они позволяют закрепить полученные знания в игровой форме.

#### Преимущества игровой методики

- Увеличение мотивации: Учащиеся чаще проявляют интерес к занятиям, когда они проходят в игровой форме.

- Улучшение запоминания: Игровые элементы помогают лучше запомнить материал благодаря ассоциативному мышлению.



- Развитие критического мышления: Игры часто требуют анализа и принятия решений, что способствует развитию критического мышления.

Игровая методика в преподавании русского языка предоставляет уникальные возможности для улучшения учебного процесса. Использование различных игровых форматов помогает не только закрепить знания, но и создать дружелюбную атмосферу в классе. Внедрение игровых методов в обучение позволяет сделать изучение языка более эффективным и интересным как для преподавателей, так и для учащихся.

### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Абдулвохидов Э. Педагогическая концепция писателей как средство обогащения педагогического процесса // Science and education Scientific journal ISSN 2181-0842 Volume 2, ISSUE 12, December 2021.
2. Багандова И.М. Лингвокультурологические проблемы перевода пословиц и поговорок даргинского языка на другие языки // Мир науки, культуры, образования. 2019. № 6 (79). С. 441-443.
3. Бабажанова Мавжуда Ташпулатовна. Development of Lingvokultural Inofons Competence on Russian Lessons International Journal of Formal Education Jan-2023
4. Бабажанова Мавжуда Ташпулатовна. Изучение категории вида глагола в классах с узб. языком обучения как лингвометодическая проблема. Таълим инновацияси ва интеграцияси №16 -3 туплам ,март -2024 й.
5. Хайрутдинова Rushana. (2024). LINGUISTIC CULTUROLOGY AND SOCIOLINGUISTICS. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(05). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/1522>
6. Хайрутдинова, Р. (2024). АКТУАЛЬНОСТЬ РОМАНА ДОРИАН ГРЕЙ. International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(6), 890-893.



## ALISHER NAVOIY AFORIZMLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH METODIKASI

O‘g‘iloy Axmadiyeva

Ogiloyaxmadaliyeva2gmail.com  
NamDPI o‘zbek tili va adabiyoti  
fakulteti 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy, o‘rta va oliy ta’lim tizimlarida o‘qitiladigan “Alisher Navoiy aforizmlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusiga zamonaviy raqamli texnologiyani tatbiq etish, amaliy-metodologik jihatdan o‘quvchilarga mavzu predmetini o‘rganishni qulaylashtiruvchi kompyuter dasturlari, onlayn platformalardan foydalanish va turli dasturiy o‘yinlar yaratish, hamda bu borada olib borilgan izlanishlar, tadqiqotlar haqidagi fikrlar yoritilgan.

**Annotation:** In this article, the application of modern digital technology to the topic "Aphorisms of Alisher Navoi and their specific features" taught in general, secondary and higher education systems, computer programs that facilitate students' learning of the subject from a practical and methodological point of view, the use of online platforms and the creation of various software games, as well as the research and research carried out in this regard, are highlighted.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается применение современных цифровых технологий к теме «Афоризмы Алишера Навои и их особенности», преподаваемой в системах общего, среднего и высшего образования, компьютерных программ, облегчающих изучение предмета студентами с практической и методической точки зрения. Представление, использование онлайн-платформ и создание различных программных игр, а также исследования и исследования, проводимые в этом отношении, освещены.

**Kalit so‘zlar:** aforizm, raqamli texnologiya, lirika, metodik uslub, qofiya, devon, internet dasturlari, interaktiv mashg‘ulotlar, leksika

**Key words:** aphorism, digital technology, lyrics, methodological style, rhyme, divan, internet programs, interactive training, vocabulary

**Ключевые слова:** афоризм, цифровые технологии, методический стиль, рифма, диван, интернет-программы, интерактивное обучение, лексика.

Adabiyot olamida Alisher Navoiy shu qadar mislsiz meros qoldirdiki, hozirgi davrgacha uning bu serqirra ijodi adabiyotshunoslik, tilshunoslik,

falsafashunoslik, tarixshunoslik kabi turli fan tarmoqlarida qator olimlar tomonidan o‘rganildi va bu hamon davom etib kelmoqda. [1] Oxirgi tadqiqotlar natijasida Navoiy asarlarida yoritilgan siyosiy qarashlar ham tadqiq qilinib, ular siyosiy-ijtimoiy adabiyotlar qatorida ilmiy izlanishlarga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Endilikda bu mumtoz xazinani yangi avlodga o‘rgatishdek mas‘uliyatli vazifa unga metodologik jihatdan yana ham chuqur yondashuvni talab qilmoqda. Jadal rivojlanib borayotgan zamonimizda mumtoz-tarixiy davr va bugungi voqealar zanjirini o‘quvchi ko‘z oldida birlashtirish uchun endilikda pedagogdan raqamli texnologiyadan foydalanish [2] talab etilmoqda.

Hozirgacha yetib kelgan yigirma jildlik merosga jamlangan lirik va epik asarlarda keltirilgan har bir so‘z yoki jumla ham ishqiy, ijtimoiy, ham siyosiy ma’nolarni kasb eta olganligi uchun ham bugungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, balki yanada olzarbligi ortgan holda yetib keldi. Mazkur asarlardagi ko‘plab fikrlar hikmatli aforizmlar sifatida avloddan avlodga o‘tib mutafakkir nomini qalblarda yashatib kelmoqda. Bugungi ta’lim tizimida Navoiy asarlari, ulardan keltirilgan ibratli fikrlarni o‘rgatish kichik sinflardan, ularning xususiyatlariga to‘xtalish, chuqurlashtirilgan holda tahlil qilish esa yuqori sinflardan boshlanadi. Masalan, 5-sinf adabiyot darsligi kirish qismida buyuk shoirning “Xazoyin ul-maoniy” asari birinchi devonida keltirilgan:

Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig‘

Yor o‘lung bir-biringizgaki, erur yorlig‘ ish.

misralari berilgan bo‘lib, bu orqali adabiyot sahnasida yaratilgan boqiy asarlar haligacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay dolzarb bo‘lib kelayotganligi tushuntirib berilgan. Mazkur fikrlar quyidagi jumlar bilan ochiqqlangan: “Bugungi kunda televizor orqali dunyoning hali u, hali bu chekkasida bombalar portlayotganiga, o‘nlab, yuzlab kishilar bir-birlarini qurbon qilayotganiga guvoh bo‘lasiz. O‘sha janglar, janjallar oqibatida azob chekayotgan begunoh odamlar ham xuddi sizdek tirik jon ekanini o‘ylarkansiz, Navoiy bobomiz naqadar haq ekanini ich-ichingizdan his qilasiz. Toki dunyoda kishilarning bir-birlariga dushmanlik


qilishlari to‘xtamas ekan, shoirning bu tashvishli qichqirig‘i o‘z ahamiyatini saqlab qolaveradi”. Ushbu tasdiqlar bolalarga tinchliksevarlik g‘oyalarini singdirishda aynan mana shu ikkilik naqadar to‘g‘ri misol bo‘la olganligiga dalildir. Ya‘ni o‘quvchiga mutafakkirning o‘g‘itlari shunchaki Navoiyni xotirlatish, mumtoz adabiyotni tushuntirish uchun emas, balki turli ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarni singdirish, anglatish uchun ham o‘qitiladi.

Bundan tashqari buyuk shoir o‘z davrida ham yosh avlodni ijodiy-ma‘naviy o‘stirishga alohida ahamiyat berganligi, ularga ijtimoiy-siyosiy kuch, kelajak poydevori sifatida qaraganligiga ham ko‘plab misollar mavjud.[3] Jumladan, Filologiya fanlari doktori Farruxbek Olimning “Tamaddun” nashriyotida bosilgan “Alisher Navoi manoqib -holatlarida badiiy-publitsistik mahorat” monografiyasida Navoiyning birgina bayti bilan e‘tiborga tushgan yosh qalamkashlarni ham o‘z tazkirasiga kiritganligi haqida ma‘lumot berilgan. Bunga dalilni yana Oybekning “Navoiy” romanida keltirilgan voqealar syujetidan ham bilib olish mumkin. Unda mutafakkirning kelajak avlodga bo‘lgan e‘tiborini ifodalash uchun yosh iste‘dod Sultonmurodga qarata Navoiy tilidan shunday jumlar keltiriladi: “Himmat va g‘ayratni aslo qo‘ldan bermang. El-ulus sizdek zotlarga g‘oyat muhtojdir. Ilm daraxtini yaxshi parvarish etib , yurt tuprog‘iga chuqur tomir yoydirmog‘imiz kerak”.

Shu tufayli ham buyuk shoirning o‘g‘itlari jonli va o‘lmas bo‘lgan . Aynan shuning uchun ham mazkur mavzu va uning pedagogik ahamiyati baribir saqlanib qolmoqda. Natijada boshqa ilg‘or sohalar singari pedagogikaning bu sohasida ham internet materiallaridan foydalanish, turli tarmoq o‘yinlari hamda dasturlar yaratish orqali o‘quvchiga yanada osonlashtirish masalasi o‘rtaga qo‘yilmoqda.

Maqola yozish davomida 19 nafar oliy talim bitiruvchisi hisoblangan yoshlar ishtirok etgan, Navoiy aforizmlarining so‘zlarining to‘g‘ri shakllarini topish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot ishida 67 % qatnashuvchilar to‘g‘ri javob berishgan. Qolgan 33 % ishtirokchilar esa xato javob berganlarini tilning bugungi kungacha bo‘lgan rivojidagi o‘zgarishlar tufayli deb izohlashgan.


## "Olam ahli bilingizkim" deb boshlanuvchi misraning to'g'ri shaklini topish bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma ko'rsatkichlari




Aforizmlarni o‘qitish metodikasida raqamli texnologiyadan qay darajada foydalanilayotganini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan yana bir tadqiqot ishida bu ko‘rsatkich juda past ekanligi aniqlandi. Mazkur o‘rganish ishida 20 nafar oliy ma’lumotli shaxslar ishtirok etishdi. Nomzodlar natijadagi aniqlikni oshirish uchun jurnalistika, filologiya sohasida faoliyat yurituvchi shaxslardan saralab olindi. Unda barcha qatnashuvchilarga quyidagi savollar berildi:

1. Alisher Navoiyning hikmatli fikrlarini ko‘proq qayerda o‘qigansiz?
2. Alisher Navoiyning aforizmlarini internet tarmog‘ida qidiruvga berganmisiz?

Natijalar esa quyidagi suratlarda keltirilgan:





Maqolada olingan masalaning dolzarbligi aynan mana shu tadqiqot natijasida ko‘zga tashlangan. Ya’ni ishtirokchilarning katta qismi mazkur mavzu yuzasidan internet qidiruv tizimidan foydalanmagan yoki aynan shu mavzudagi internet o‘yinlariga ham duch kelmaganliklarini ta’kidlashgan. Shu tufayli ham pedagogikadagi ushbu mavzuga yana ham ko‘proq internetni joriy etish, turli onlayn o‘yinlar ishlab chiqish, hozirgi kunda jamoaviy dasturiy o‘yinlar uchun eng uyg‘u bo‘lgan “Kahoot” dasturdan foydalanish lozim. Bu orqali o‘rganuvchida ushbu mavzuga qiziqishni orttirish bilan birga, internet qidiruv tizimida ushbu yo‘nalishda rang-baranglikni ta’minlash mumkin. Ya’ni istalgan qidiruv brauzeridan “Navoiy aforizmlari” yoki “Alisher Navoiyning himatli so‘zlari” sarlavhasi bilan qidiruv bersangiz, bir qator kitob sahifalari, internet saytlari, test va savol-javob materiallariga duch kelasiz. Ular orasida ushbu mavzuga oid aforizmlarning izohli dasturlari, o‘yin dasturlari yoki shu kabi biror materialga duch kelishingiz qiyin.

Shu tufayli ham o‘quvchilardagi faollikni oshirish, sinfdagi interaktiv mashg‘ulotlarni ko‘paytirishda kompyuter dasturlarini mavzuga joriy qilish muhimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Собирова М. Alisher Navoiy qarashlari – milliy g‘oyamiz poydevori. International Journal of Economy and Innovation [Volume 42] Gospodarka i Innowacje [https://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue\\_view\\_32/article/view/2129](https://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/2129) 2023 LWAB
2. Alisher Navoiy. Xazoiyin ul-maoniy. Birinchi devon. G‘aroyib us-sig‘ar. – Toshkent: Tamaddun, 2022



3. Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
4. Sunnat Ahmedov, Begali Qosimov, Rahmon Qo‘chqorov, Shuhratilla Rizayev. Umumiy oi‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun adabiyot darsligi. – Toshkent: 2020. – 6 b.
5. Sobirova, M. (2021). The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp.z o.o."iScience", 2021. Part 3 – 234 p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9634%20-%203%20%28web%29.pdf> ctp. 98-105
6. Farruxbek Olim. Alisher Navoiy manqib-holatlarida badiiy-publitsistik mahorat. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – 14 b.
7. Sobirova, M. (2020). Assimilation of human qualities during the process of working with text. International Scientific Journal “Theoretical & Applied Science” SOI: 1.1/TAS (<http://t-science.org/axiv> DOI/2020/12-92.html) ( DOI:10.15863/TAS Published: 18.12.2020.
8. Sobirova, M.Y. (2019). About the history of speech culture and art of oratory. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80), 275-277. Retrieved from: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42657439>
9. O‘g‘iloy Axmadaliyeva. Majolis un-nafois xususida. – Toshkent: O‘zFA
10. Sobirova M. O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi. Darslik. – Namanagan: Arjumand media, 2023. – B.512.